TASHKENT INSTITUTE OF MANAGEMENT AND ECONOMICS

MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

1-TO'PLAM
1-SON/2024



# MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

# MENEJMENT VA IQTISODIYOT ILMIY-TADQIQOT JURNALI

# НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ

journals@timeedu.uz

+998 95 651 90 00

# MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| **Шарипов К.А., Хотамов И.С.** | Основные направления развития «зелёной» энергетики в Узбекистане…………………………………… | 2 |
| **Хашимов Б.А., Ахмедов Х.Д., Махкамова С.Г.** | Совершенствование учета поступления и выбытия нематериальных активов по договору обмена в нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан……….. | 10 |
| **Narbayev Sh.K., Sadullayev S.N.** | Dehqon xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarish tendensiyalari…………………………………. | 20 |
| **Nosirova N.J.** | Reklama – marketing kommunikatsiyasining biznesga ta'siri……………………………………………………………………….. | 26 |
| **Samadov A.N.** | Innovative Service Marketing: Russian Experience……….. | 34 |
| **Temirov A.A.** | Prospects for digitalization of corporate governance in corporate structures of the Republic of Uzbekistan………. | 42 |
| **Sobirov A.A.** | Sanoat klasterlari – sanoat salohiyatini oshirishning strategik yo'nalishi sifatida……………………………………….. | 51 |
| **Rajabov N.R., Adilova M.T., Xasanova N.N.** | Mintaqalar iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlanishining tashqi va ichki tahdidlari…………………................................. | 60 |
| **Azlarova M.A.** | Waste management activities and methods………………... | 71 |
| **Кадирова И.Б.** | Анализ состояния и тенденций развития свободных экономических зон в Республике Узбекистан……........ | 74 |
| **Fozilova F.K.** | Importance of children's financial education and behavior | 78 |
| **Фарходова Ш.Ш.** | Новые тенденции развития современного менеджмента в цифровой экономике: проблемы и решения………………………………………………………………….. | 83 |
| **Ostanaqulov X.M.** | Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston misolida…………………………………………….... | 87 |
| **Karrieva Y.K.** | Ways of development of innovative logistics in Uzbekistan | 95 |
| **Masharipova Sh.A.** | Transport-logistika klasterlari faoliyati bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari……. | 100 |
| **Xudayberdiyev O'.E** | Mamlakatda qoramolchilik mahsulotlari marketingini rivojlantirish yo'nalishlari……………………..……………… | 111 |
| **Каримов В.А.** | Қишлоқ хўжалиги маҳсулот ишлаб чиқаришида қишлоқ хўжалиги техникаларининг аҳамияти ………. | 116 |
| **Qahhorov Sh.G'.** | O'zbekiston tijorat banklarining "muammoli kreditlari" | 122 |
| **Мурадов Ф.Д.** | Конституция: ижтимоий адолатнинг кафолати……... | 125 |
| **Karimova S. T.** | Konstitutsiya – ishonchli kelajak va farovon hayot Qomusi | 131 |
| **Arziqulov E.A.** | Konstitutsiya farovon taraqqiyotimiz garovi………………... | 137 |
| **Azim Davron.** | Jadid matbuoti: Ismoil Gasprali va Hamza Hakimzoda….. | 142 |
| **Baxanurov O. O.** | Digital Currencies and Central Banks: An Analysis from a National Economic Security Perspective | 148 |
| **Akbarov Sh.X.** | Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali korxonalarda HR menejment tizimini takomillashtirish ("O'zbekiston temir yo'llar" AJ misoolida) | 155 |
| **Kodirov S.Q.** | Logistika va Iqtisodiyot | 160 |

**BANK ISHI**

# O‘zbekiston tijorat banklarining “muammoli kreditlari”

***Qahhorov Shohruh G‘ulom o‘g‘li***
*BFA magistri*

***Annotatsiya.*** *Maqolada O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida yuzaga kelayotgan kredit bilan bog‘liq muammolar – foydasiz kreditlar chiqishi va ularning qaytishi muammoli kreditlarga aylanishi orqali banklarda uchrayotgan “noqulayliklar”ga yechimlar, takliflar va tavsiyalar berib o‘tiladi.*
***Kalit so‘zlar:*** *kredit, bank, foiz, to‘lov, investitsiya, loyiha, bitim, muammoli kreditlar.*

***Annotation.*** *In this article, solutions, suggestions and recommendations are given to the credit problems arising in the commercial banks of the Republic of Uzbekistan - the "inconveniences" faced by the banks through the issuance of unprofitable loans and their return to problematic loans.*
***Keywords:*** *credit, bank, interest, payment, investment, project, transaction, problem loans.*

***Аннотация.*** *В статье даны решения, предложения и рекомендации по кредитным проблемам, возникающим в коммерческих банках Республики Узбекистан, - «неудобствам», с которыми сталкиваются банки при выдаче убыточных кредитов и их возврате в проблемные кредиты.*
***Ключевые слова:*** *кредит, банк, проценты, платеж, инвестиции, проект, сделка, проблемные кредиты.*

**Kirish.** Muammoli kredit (Non-performing Loan-NPL) nima? Bu muddati o‘tgan asosiy yoki foiz qarzdorliklari yuzaga kelgan kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring amaliyotlari (muddati o‘tgan hisob-varaqlarga o‘tgan asosiy yoki foiz qarzdorliklari yuzaga kelgan va sud jarayonida turgan kreditlar) hisoblanadi. Muammoli kreditlar deganda, “Qoniqarsiz”, ”Shubhali” va “Umidsiz” sifatida tasniflanadigan aktivlar tushuniladi. Tijorat banklari Markaziy bank boshqaruvi tomonidan 1998-yil 9-noyabrda tasdiqlangan 242-sonli “Aktivlar sifatini tasniflash, mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar bo‘yicha tijorat banklari tomonidan zaxiralar tashkil qilish va undan foydalanish qoidasi”ga asosan aktivlar tasniflanadi va ularga majburiy zaxiralar yaratadi. Aktivlarning tasniflanishiga qarab “Standart” aktivlarga 1 %, “Substandart” aktivlarga 10 %, “Qoniqarsiz” aktivlarga 25 %, “Shubhali” aktivlarga 50 % hamda “Umidsiz” deb topilgan aktivlarga 100 % zaxira yaratiladi.

**Metodologiya va adabiyotlar tahlili.** Maqolani yozish jarayonida izlanishlar va tahlillar olib borish uchun quyidagi metodlar qo‘llanildi:

♣O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari va statistik ma’lumotlarini o‘rganish va tahlil qilish;

♣muammoli kreditlar bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlarini o'rganish uchun ilmiy maqolalar, tadqiqotlar va hisobotlarni tahlil qilish;

♣xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish;

♣tijorat banklari xodimlari va mutaxassislari bilan suhbatlar o'tkazish orqali muammolarning real holatini o'rganish.

Mavzu yuzasidan bir qator mahalliy va xorijlik olimlarning ilmiy ishlari o'rganib chiqildi. Xususan, I.Abdullayev, N.Abdullayeva, Sh.Mustafakulov, Bogdan Mróz, Sanjay Dhal kabi iqtisodchi olimlarning banklarda muammoli kreditlar mavzusidagi tadqiqot ishlari tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqotda olingan ilmiy natijalar orqali hududiy taraqqiyotning umumiy darajasi, hudud iqtisodiyoti asosiy tarmoqlarining holati, hududning moliyaviy holati, investision faollik, aholi daromadlari darajasi, bandlik va mehnat bozori, ijtimoiy soha holati, ekologik vaziyat hududiy diagnostika ko'rsatkichlari va shular asosida hududlar reytingi hamda rivojlanish indeksini aniqlash, metodologiyasini takomillashtirish imkonini beradi. Bularning asosiy sabablari muammoga aylanayotdan davlat dasturlari doirasida berilgan kreditlar va no'to'g'ri yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari hisoblanadi.

Olib borilgan tahlil va izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

⇒ O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushi yuqori, ayniqsa yangi ochilgan va xususiy banklarda bu ko'rsatkich yuqori;

⇒ muammoli kreditlarning asosiy sabablari: kreditlarning samarasiz sohalarga yo'naltirilishi, puxta ishlab chiqilmagan biznes rejalarga kreditlar ajratilishi, kredit maqsadlarining to'g'ri tanlanmaganligi;

⇒ muammoli kreditlarni kamaytirish uchun banklarda alohida maslahat beruvchi bo'limlar ochish, biznes rejalarni ekspertiza qilish tizimini yo'lga qo'yish va foizlarni pasaytirish orqali tadbirkorlar bilan ko'proq hamkorlik qilish tavsiya etiladi.

**Xulosa.** Muammoli kreditlar O'zbekiston tijorat banklari uchun dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ularning kelib chiqish sabablari ko'p jihatdan kredit siyosatidagi kamchiliklar va xatoliklar bilan bog'liq. Kreditlarni yanada samaraliroq yo'naltirish, tadbirkorlarga konsultatsiya va ko'mak berish, hamkorlikni kuchaytirish orqali muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va bank tizimining barqarorligini oshirish mumkin. Bunda xorijiy tajribalardan ham unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### *Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati*

*1. Абдуллаев И., Абдуллаева Н. Муаммоли кредитлар – тижорат банклари фаолиятидаги долзарб масала. // Молия ва банк иши. – Т., 2020. № 2. 40-43-б.*

*2. Nurillaev, J.Y. (2024). Theoretical and methodological foundations of financing karakul farming in a market economy.*

*3. Мустафакулов Ш. Муаммоли кредитларни бошқаришда хориж тажрибаси. // Иқтисод ва молия. – Т., 2018. № 9. 33-37-б.*

*4. Nurillaev, J.Y. (2021). Directions To Improve The Activities Of The Karakulchil Sector In Uzbekistan. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(02), 57-62.* https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume 03Issue02-11

*5. Bogdan Mróz. The Problem of Non-Performing Loans in the Banking Systems of Central and Eastern European Countries. // Entrepreneurial Business and Economics Review. 2021. Vol. 9(2). P. 77-93.*

*6. Nurillayev, J.Y. (2022). The role of corporate management system in providing financial security in commercial banks.*

*7. Yarashevich, P.N.J. (2023). Factors for Choosing a Marketing Strategy in Tourism Development.*

*8. Sanjay Dhal. Non-Performing Loans in Indian Banks: This Time it is Different. // Reserve Bank of India Bulletin. Vol.LXXIV(3). March 2020. P. 81- 96.*

***Ingliz tili muharriri:*** *Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi*
***Musahhih:*** *Vahobova Marfua Mirkamalovna*
***Sahifalovchi va dizayner:*** *Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li*

# 2024. 1-son

© Materiallar koʻchirib bosilganda **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar maʼsul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El. pochta: journals@timeedu.uz
Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan. Litsenziya raqami: C-5669639
PNFL: 308906510

***Manzilimiz:*** *Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani*
*Shota Rustaveli ko'chasi, 114*